



MAQSUD SHAYXZODA" TOSHKENTNOMA" DOSTONI HAQIDA

Sevinch Anvarovna Hasanova

Faculty of Economics

Department of Transport Economics

ORCID: 0009-0005-6621-3409

Tashkent State Transport University, Tashkent, Uzbekistan

e-mail: khasanovasevinch7@gmail.com

Annotasiya: Maqsud Shayxzoda san'at, adabiyot tarix va falsafaga qiziqqan ko'p qirrali istedad soxibi bo'lgan. Bundan tashqari u mohir tarjimon ham bo'lgan. Uning yaratgan asarlari manaviy merosimiz va boyligimiz hisoblanadi. Ushbu maqolada shoirning "Toshkentnoma" dostoni haqida so'z borgan.

Kalit so'zlar: mumtoz she'riyat, poetik belgilar, tadqiqotchi.

Maqsud Shayxzoda 1908 yili Ozarbayjonning Ganja viloyatiga qarashli Oqtosh shahrida tug'ildi. Otasi Ma'sumbek elu-yurtda katta obro'ga ega shifokor edi. U san'at va adabiyotni sevar, tarix va falsafaga qiziqardi, Oqtosh ziyolilari bilan turli masalalarda suhbatlashardi. Yosh Maqsud Nizomiy va Firdavsiy, Navoiy va Fuzuliy, Pushkin va Shekspir kabi buyuklar nomini ilk matotaba ana shu gurunglarda eshitadi va bu muhit unga adabiyotga bo'lgan qiziqishini uyg'otadi. Maqsud Shayxzoda Oqtoshda ibtidoiy maktabni bitirgach, 1921 yili Boku dorilmualliminiga o'qishga kiradi va uni tugatgach Dog'istonning Darband, Bo'ynoq shaharlarida muallimlik qilgan. U 1926 yili Adhem Fayziy tashkilotiga a'zo etilgan «Milliy firqa» tashkilotiga a'zo bo'lib, musovotchilar harakatida faol qatnashgani uchun 1928 yili hibsga olinib, Toshkentga surgun qilingan. Umrining oxiriga qadar shu yerda yashab, ijod qilgan. Albatta, sho'ro hukumati Shayxzodani O'zbekistonda ham ta'qiblar va tahqirlardan benasib qoldirgani yo'q. Muhimi shundaki, Shayxzoda «tole' doim erkalamaganiga» qaramay, umrining oxiriga qadar o'zbek xalqining sadoqatli farzandi sifatida faoliyat ko'rsatdi va O'zbekiston uning ikkinchi vatani bo'lib qoldi. Shayxzoda Toshkentga kelgach, avval Narimonov nomidagi texnikumda dars beradi, keyin "Sharq haqiqati", "Qizil O'zbekiston", "Yosh leninchi" gazetalarida ishlaydi. 1929 yili yosh shoirning o'zbek tilidagi dastlabki she'ri "Sharq haqiqati" gazetasi sahifalarida bosilib chiqadi. Oradan ko'p o'tmay, Shayxzodaning birinchi to'plami "O'n she'r", keyinroq "Undoshlarim" (1933), "Uchinchi kitob" (1934), "Jumhuriyat" (1935) kabi to'plamlari nashr etiladi. Dastlabki she'riy to'plami — „Loyiq soqchi“ (1932). Shundan keyin shahrining „O'n she'r“ (1932), „Undoshlarim“ (1933), „Uchinchi kitob“ (1934),



„Jumhuriyat“ (1935), „O‘n ikki“, „Yangi devon“ (1937), „Saylov qo‘shiqlari“ (1938), „Kurash nechun?“ (1942), „Jang va qo‘shiq“, „Ko‘ngil deydiki“ (1943), „O‘n besh yilning daftari“ (1947), „Yurt she‘rlari“ (1948), „Zamon torlari“, „Olqishlarim“ (1949), „Yillar va yo‘llar“ (1961), „She‘rlar“ (1964) va boshqa she‘riy to‘plamlari nashr etilgan. Shoirning dastlabki ijodida va qisman 50 yillardagi ayrim she‘rlarida ozarbayjon she‘riyatiga xos ohanglar, minbar she‘riyat belgilari ustuvorlik qilgan. Ammo Shayxzoda o‘zbek mumtoz va zamonaviy she‘riyatining tili va uslubini egallagani sayin uning she‘rlarida o‘zbekona musiqiy ravonlik kuchaya bordi. Shayxzoda voqelikka faol munosabatda bo‘lishga intilib, xalq va mamlakat hayotida ro‘y bergan muhim voqealarni tasvirlashga, mehnat va kurash qahramonlari obrazini yaratishga alohida e‘tibor berdi. U shu maqsadda doston janriga qo‘l urib, „O‘rtoq mulk“ (1933), „Chirog“, „O‘rtoq“, „Meros“, „Tuproq va haq“ (1936), „Ovchi qissasi“, „Iskandar Zulqarnayn“ (1940), „O‘n birlar“, „Jenya“, „Oqsoqol“ (1943), „Axmadjonning hikmatlari“, „Uchinchi o‘g‘il“ (1944), „Nurmat otaning tushi“ (1947) singari liroepik asarlar yozdi. Shoirning 30-40 yillardagi she‘riyatiga ham, keyingi ijodiga ham xos muhim fazilatlardan biri syujetlilikdir. Shayxzoda lirik syujet yaratishga moyil shoir sifatida xalq afsonalari va tarixiy o‘tmish sahifalariga, shuningdek, zamondoshlari hayotiga murojaat etib, o‘z she‘rlariga balladaga xos poetik belgilar va turli poetik tafsillarni olib kirgan, so‘zning she‘riy qurilmadagi mavqeini oshirish choralarini ko‘rgan.

Maqsud Shayxzoda „xalqimizning mehnat qahramonligi, kurash va jang, ozodlik va do‘stlik, baxt va alam, yurtning go‘zal manzaralari va insonning ma‘naviy jamoli mening qalamimga oshno, dilimga mazmun bo‘lib keldi“ deb ta‘kidlagan edi. Shoirning bu fazilatlari, eng avvalo, hayotdagi, voqelikdagi va odamlarimizning ruhiy olamidagi o‘zgarishlar, holatlarni ifodalashga qodir yangi, betakror obrazlarida namoyon bo‘ldi. Bu Tarix -Yo‘l - Safar - Kema -Karvon, Xarita (er kurrasi va Vatani), Manzil, Raqam, Sur‘at va Vaqt obrazlaridir. Bular bir-biri bilan uzviy bog‘langan bo‘lib, insoniyat tarixi yaxlitdir va doim olg‘a qarab harakat qiladi, bu insoniyat karvonini - kemani to‘xtatib bo‘lmaydi, u insoniyat orzusi - baxt-saodat manzili sari harakat qiladi.

Buni Shayxzodaning o‘z kitoblariga „O‘n besh yillik daftari“ yoki „Chorak asr devoni“ deb sarlavha qo‘yishidan ham bilish mumkin. Shoirning o‘zi „Inson umri cheklangan muhlatli daftar“, demak bu daftarni foydali, ezgu ishlar - „yozuvlar“ bilan to‘ldirish lozim deydi. „Raqamlar“ she‘rida esa shunday satrlar bor: „Men na munajjimman va na hisobdon va lekin ko‘raman sonlar mag‘zida osmoncha ma‘nolar, yurtni obodon“...

„Qo‘llar“ she‘rida qo‘llarda insonning borlig‘ini, uning ichki olamining muhrini ko‘radi. Uningcha, „g‘oyat shafqatli, hayotbaxsh qo‘llar“ ham



“ayovsiz, yovuz, go‘r kabi sovuq, tanbal” qo‘llar ham bor, qisqasi, har bir qo‘l “yurakning navkarlaridir”, yurak neni buyursa, qo‘l shuni ijro etadi. Maqsud Shayxzoda ijodiy balog‘atidan dalolat beruvchi asarlardan biri “Toshkentnoma” dostonidir. Adabiy jamoatchilik o‘z vaqtida bu dostonni shoirning adabiyotimizning yirik ijodiy muvaffaqiyati sifatida baholadi. Chindan ham, “Toshkentnoma” Shayxzoda dostonlari ichida eng barkamoli bo‘lib, unda shoir shaxsiyatining o‘ziga xos qirralari ancha yorqin namoyon bo‘lgan. Dostondagi o‘ziga xoslik shundaki, asar yaxlit voqea asosiga qurilgan emas.

Shaharlar boqiydir, umr — o‘tkinchi,
Daryolar sobitdir, suvlar — ko‘chkinchi.
Har kim o‘z shahrida qo‘ygan esdalik:
YO bino qurishda katta ustalik,
YO shirin latifa yoki ixtiro,
YO daraxt, yo farzand, ko‘prik, yo misra,
YO qo‘shiq, yo dori, maktab, sog‘chilik,
Xulosa: dunyoda biron yaxshilik...
Bir vaqtlar men senga shahrimni maqtab
Qilarkan ta‘rifin, sen bir oz to‘xtab,
«Shunchalar bormikan?» deb gumon qilding,
«Ko‘rganda aytamiz!» deb imo qilding.
Va aytding – darvoqe ko‘rgandan keyin:
«Maqtoving oz ekan, soz ekan uying!»
Qomatga munosib bo‘lsin deb libos,
Shahrimga dildagi muhabbat, ixlos
Dostonga quyilsin degandim u choq,
Kechikib yozganim kechirgin, o‘rtoq!
Bu yerda turganlar, yoki ko‘rganlar,
Yoki ko‘rayin deb istab turganlar,
Yoki Toshkentimning shaklin so‘rganlar,
Naqshini dilida olib yurganlar...
Sizga bu taronam — kuyim armug‘on,
Nasr — og‘ir qadam, nazm — chopog‘on.

Shayxzoda ko‘pqirrali iste‘dod sohibi edi. U she‘rlar va dostonlar bilan birga, juda yuksak badiiy quvvatga ega bo‘lgan dramalar ham yaratdi. Shayxzoda umrining so‘ngida yozishga kirishgan, lekin tugatib ulgurmagan “Beruniy” dramasini hisobga olmaganda ham, uning “Jaloliddin Manguberdi” va “Mirzo Ulug‘bek” dramalari allaqachon xalqimizning badiiy mulkiga aylanib qoldi. Shayxzoda ikkinchi jahon urushi yillarida yozgan “Jaloliddin Manguberdi” (1944) tragediyasida o‘z yurtining ozodligi va mustaqilligi uchun mo‘g‘ul istilochilariga qarshi kurashgan so‘nggi Xorazm shohining jangovar



jasoratini tarixan aniq va haqqoniy tasvirlagan. Oybek bilan Gʻafur Gʻulom oʻsha vaqtda asarga yuqori baho berishib: “Tarixiy jarayonning haqiqiy mazmunini, uning ichki maʼnosini” ochib bergan, “Kompozitsiyasi pishiq, dramatik toʻqnashuvlarga boy bir asar. 1946 yilgacha “Jaloliddin Manguberdi” dramasidan ayrim parchalar “Armugʻon” toʻplamida bosilgan edi. Shundan keyin 43 yil davomida asar tilga olinmadi va dunyo yuzini koʻrmadi. Asar sahnadan olingandan keyin koʻp utmay Shayxzoda qamaldi. Bu asarga oʻtmish ideallashtirilgan degan siyosiy ayb qoʻyildi. Musodara etilgan buyumlar ichida dramaning qoʻlyozmasi ham bor edi. Muallif oqlanib, qaytib kelganidan keyin muayyan tashkilotlar “yoʻqoldi” degan bahonalar bilan qoʻlyozmani qaytarib bermadilar. Shayxzoda uni bir necha yil qidirishga majbur boʻldi va nihoyat, teatrning sobiq suflyorlaridan uning bir nusxasini topishga muvaffaq boʻldi. Maqsud Shayxzodaning xalqimiz tarixiga, jumladan, Jaloliddin Manguberdi taqdiri va kurashiga odilona yondoshganligi, haqiqatni himoya qilganligi Prezidentimiz Islom Karimov imzosi bilan eʼlon qilingan Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 24 sentyabrdagi “Jaloliddin Manguberdi tavalludining 800 yilligini nishonlash toʻgʻrisida” qarori ham yana bir bor tasdiqlaydi. Maqsud Shayxzoda yuksak ilm egasi edi. Ayniqsa, u oʻzbek mumtoz adabiyotini chuqur bilar edi. 1941 yilda Toshkentda nashr etilgan “Genial shoir” toʻplami adabiyotshunos olim Shayxzodaning Navoiy ijodiga oid ilmiy maqolalaridan tashkil topgan. Navoiy sheʼriyatining bu chuqur ilmiy tadqiqi navoiyshunoslikda hamisha alohida oʻrin egallab qoladi. Shayxzoda Navoiy mahoratini, uning sanʼatkorligini teran oʻrganishni boshlab bergan oʻtkir tadqiqotchi edi. Filologiya fanlari nomzodi, dotsent Maqsud Shayxzoda Toshkent Davlat universiteti (hozirgi Oʻzbekiston Milliy universiteti)da, Toshkent Davlat pedagogika instituti (hozirgi Toshkent Davlat pedagogika universiteti)da uzoq yillar davomida oʻzbek adabiyoti tarixidan oʻqigan maʼruzalari, maxsus kurslari oʻzbek adabiyoti tarixi boʻyicha eng qimmatli darslar edi. Maqsud Shayxzodaning butun ijodi chuqur siyosiy publitsistik ruh bilan toʻla. Uning sheʼriy, dramatik asarlari qaysi mavzuga bagʻishlangan boʻlmasin, zamona bilan hamohangdir. Shuning uchun ham shu tipdagi ijodkorning bevosita publitsistika janrida xizmat qilishi tasodifiy hol emas. Uning zoʻr badiiy janrga ega boʻlgan publitsistik maqolalari va nutqlari bu isteʼdodli adib ijodining mazmundorligi va rang-barangligidan yorqin nishonadir. Isteʼdodli shoir mohir tarjimon ham edi. U jahon adabiyoti mumtoz shoirlarining asarlarini oʻzbek tiliga tarjima qilishda katta xizmat qildi. Jumladan, Shekspirning “Hamlet” va “Romeo va Juletta” asarlari oʻzbek drama teatrlari sahnasida Shayxzoda tarjimasida sahnalashtirildi. Shoir mahoratining oʻsishiga, uning jahon adabiyoti klassiklarining asarlarini gʻoyat sevib oʻrgangani, ularning boy badiiy tajribasini ustalik bilan oʻzlashtirgani ham



sabab bo'ldi. U G'arbiy Yevropa va rus adabiyotini mukammal bilgani holda o'zining Vatan adabiyotini - Sharq she'riyati merosini ham to'la o'rgangan edi. Maqsud Shayxzodani 50-yillar boshida mutlaqo asossiz ravishda qamoqqa oladilar va 25 yilga surgun qiladilar. Stalin vafot etgach, tuhmat bilan nohaq qamalganlarning ishi qayta ko'rildi. Shu tariqa 1955 yili ko'pgina fidoyi ziyolilarimiz qatori Shayxzoda ham oqlanib chiqdi. Lekin 5 yillik qamoqxona azoblari natijasida shoirning sog'ligi juda yomonlashib qolgan edi. Shunga qaramay, umrining oxirigacha 10 yil davomida baland uyning eng yuqori qavatida yashashga majbur bo'ldi. Ana shunday og'ir sharoit va xastalikda ham hayotidan sira nolimay umrining oxirigacha ijod qilishdan to'xtamadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. G'afurov I., O'rtoq shoir. Maksud Shayxzoda ijodiyoti, T., 1975.
2. Maksud Shayxzoda zamondoshlari xotirasida, T., 1983.
3. Boboyev T. "Adabiyotshunoslik asoslari". Toshkent. 2002. 558 b.
4. S. Mirvaliyev, R. Shokirova "O'zbek adiblari" G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti T., 2016.
5. Shayxzoda Maksud. Shoir qalbi dunyoni tinglar (Tanlangan asarlar) // Toshkent, „Nihol“, 2008.
6. Zokirov M. Maqsud Shayxzoda. Adabiy tanqidiy ocherk, T., 1969.
7. Yusuf Shomansur. Shayxzoda — bunyodkor shoir, T., 1972.
8. XX asr o'zbek adabiyoti tarixi, T., 1999.
9. S. Mirvaliyev, R. Shokirova "O'zbek adiblari" G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti T., 2016.